

## INNOVATION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA LOYIXALASH USULLARI

*Do'smatova Musavvar Shuhratovna*

*Navoiy davlat pedagogika instituti*

*Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim)*

*2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida loyixalash va ulardan ta'limda samarali, bosqichma-bosqich foydalanish, pedagogik texnologiyalarning ta'lim va tarbiya jarayonidagi ahamiyati haqida fikrlar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Innovatsion pedagogik texnologiyalar, innovatsiya, yangi pedagogik dars usullari

**Abstract:** This article discusses the importance of pedagogical technologies in the process of education and training, designing based on innovative pedagogical technologies and their effective, step-by-step use in education.

**Key words:** Innovative pedagogical technologies, innovation, new pedagogical teaching methods

Bugungi zamonaviy ta'lim tizimining asosiy unsurlaridan biri bu, shubxasiz, yangicha, ya'ni innovatsion pedagogik texnologiyalardir. Ushbu pedagogik texnologiyalar orqali dars jarayonlarining olib borilishi yoki tashkil etilishi o'quvchilarning ham erkin, ham yangicha fikrlashlariga katta yo'l ochib berish uchun xizmat qiladi. Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish - innovatsion pedagogikani maydonga olib chiqdi. "Innovatsion pedagogika" termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar G'arbiy Yevropa va AQShda 60-yillarda paydo bo'ldi. Yangilik kiritishning sotsial-psixologik aspekti amerikalik innovativ E.Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifa(tip)lari tasnifini, uning yangilikka bo'lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etadi.

Pedagogik texnologiya — ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'lash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi. Ta'lim mazmuni ta'lim maqsadlariga mos ravishda tanlanadi. Keyingi bosqichda didaktik jarayonlarni tanlash va ishlab chiqish amalga oshiriladi. Loyihalashtirishning so'nggi bosqichida ta'limni tashkil etish shakllari aniqlanadi va ishlab chiqilgan loyiha o'quv-metodik majmua hujjatlarida aks ettiriladi. Pedagogik obyektini loyihalashtirishning tartibi tayyorlov, loyihani ishlab chiqish, loyiha sifatini tekshirish jarayonlaridan iborat. Tayyorlov jarayonida obyektini tahlil etish, shakllarini tanlash, didaktik ta'minoti, ta'lim jarayonining joyi va vaqti, moddiy-texnika ta'minoti aniqlashtiriladi. Loyihani

ishlab chiqish jarayonida uni tizimga keltiruvchi omillarni tanlash, tarkibiy qismlar orasidagi aloqalar va o'zaro bog'liqliklarni aniqlashtirish hamda hujjatni tayyorlashdan iborat bo'ladi. Loyiha sifatini tekshirish uni amalga oshirish jarayonini fikran tajribadan o'tkazish, ekspert bahosi, tahrirlash, loyihani amalga oshirish bo'yicha qaror qabul qilish jarayonlarini o'z ichiga oladi. V. P. Bepalko tomonidan pedagogik jarayonning loyihalashtirilishi tarkibiy qismlar sifatida maqsad, asosiy qonun-qoidalar, mazmun, metodlar, vositalar va shakllar nazarda tutiladi. Pedagogik jarayon quyidagi: maqsad, mazmun, jarayon, baholash, natija kabi tarkibiy qismlardan iborat ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Loyihalashtirishni pedagogik jarayonning tarkibiy qismlariga mos ravishda amalga oshirish maqsadga muvofiq, yani:

- o'quv jarayonning pedagogik tizim sifatida loyihalashtirilishi kerak bo'lgan elementi ajratib olinadi;
- maqsad qismi loyihalanadi;
- qo'yilgan maqsadlarga asosan o'quv materialining mazmuni tizimlashtiriladi, ya'ni ma'lum bir tizimga keltiriladi;
- kompetensiyalarni rivojlantirish qonuniyatlarini va bir tizimga keltirilgan mazmunning mantig'ini hisobga olgan holda, talabalarning bilim egallashi va amalda qo'llashni o'rganishi bo'yicha o'qituvchining harakatlar dasturi tuziladi.

Maqsad tashqi va ichki rejalarni o'z ichiga oladi. Tashqi reja jamiyat ehtiyojlarini, ishlab chiqarish talablarini, fan va texnikaning rivojlanish darajasini aks ettiradi. Ichki reja shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. Maqsadlar reflektiv va bosqichli bo'lib, aniq ifodalanadi va dinamik xarakterga ega bo'ladi. Pedagogik faoliyatning maqsadlari ichki va tashqi omillarga mos ravishda o'zgarib turadi. V. S. Bezrukova ta'kidlaydiki: "Jamiyat va davlat ehtiyojlari, ta'lim standartlari va oliy ma'lumotli mutaxassislariga bo'lgan talablar bozorini o'rganish natijalari ta'lim maqsadlarini belgilashning an'anaviy metodologik asoslari hisoblanadi, lekin maqsadlarni belgilashning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqishda ijtimoiy vazifalar bilan bir qatorda, ta'lim jarayonining xarakterini va maqsadga erishishga qaratilgan harakatlar tezligini belgilaydigan omillar hisoblanadigan shaxsning ichki intilishlarini, kasbiy qiziqishlarini, maqsadlarni amalga oshirishga tayyorlik darajasini, psixologik xususiyatlarini ham hisobga olish zarur".

- ta'lim tizimining umumiy tuzilmasini va uning muayyan bo'linmalarini aks ettirish;
- shaxsning psixologik tuzilishini hisobga olish;

– bilimlarni o‘zlashtirish darajasi bo‘yicha tuzish.

Ta‘lim mazmuni konsepsiyasiga muvofiq, ta‘lim jarayoni ijtimoiy tamoyillar asosida tashkillashtirilgan va muayyan maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishdir. Texnologiya fani metodikasi pedagogika fanining tarkibiy qismi sifatida asosiy e‘tiborni kasbiy jihatdan muhim bo‘lgan sifatlarni shakllantirishga qaratiladi. Kasbiy jihatdan muhim bo‘lgan sifatlar – faoliyatning samaradorligi (unumdorligi, aniqligi, obyektning chiroyli va ixcham konstruksiyasi, yuqori sifatlilik, mahsuldorligi va hokazo)ni aniqlovchi shaxsning psixologik sifatlaridir. Bu sifatlar keng funksional xarakterga ega bo‘lib, har bir kasb egasidan muayyan kasbiy sifatlarni talab etadi, zero, texnologiya fani yo‘nalishning asosiy maqsadi kasbiy sifatlarni to‘la egallagan, yuqori malakali, kompetentli mutaxassisni tayyorlashdan iborat. Texnologiya ta‘limi mazmunini aniqlashda ta‘lim bosqichining bitiruvchisi amalga oshirishi zarur bo‘lgan vazifalarning mazmuni va murakkablik darajasidan kelib chiqiladi. Vazifalar esa o‘z navbatida uch turga bo‘linadi: o‘qish, o‘zlashtirish va amalda qo‘llash. Texnologiya ta‘limi mazmunini shakllantirishda mazmunni tanlash “yuqoridan quyiga”, “oddiydan murakkabga” qoidasiga asosan amalga oshiriladi: bo‘ljak mehnat faoliyati mazmunidan yoki kelajakda o‘rganiladigan fanlarni o‘zlashtirish uchun zarur bo‘ladigan ma‘lumotlardan kelib chiqqan holda, loyihalashtirilayotgan fanning mazmuni shakllantiriladi. Ta‘lim jarayoniga zamonaviy texnologik yondashuvlarga ko‘ra, ta‘lim mazmuni ta‘lim texnologiyasining asosiy qismi bo‘lib hisoblanadi. Ta‘lim mazmunini loyihalashtirishni o‘quv fani va dasturi darajasida ko‘rib chiqish mumkin. O‘quv fani mazmuni bir-biri bilan almashinib turuvchi faoliyat predmeti sifatida qator talablar asosida tuziladi: matnli axborotni shakllantirish, bilimlarni o‘zlashtirish qonuniyatlarini hisobga olish, fanning ilmiy asoslarini o‘z ichiga olishi, bo‘ljak mutaxassis kasbiy faoliyatini aks ettirishi zarur.

Oliy kasbiy ta‘lim jarayoni nazariy qismining tuzilmasiga ta‘sir etuvchi omillar sifatida: texnologiya ta‘limining maqsadlari; kasbiy faoliyatning umumiy tuzilmasi (ilmiy, loyihalash, konstruktorlik-texnologik, boshqaruv, pedagogik); o‘rganish obyekti sifatida mehnat ta‘limi yo‘nalishiga mos keluvchi kasbiy faoliyati sohasi; integratsiyaning muayyan kasbiy faoliyatning asosiy usullari nazarda tutiladi. Texnologiya fani mazmunini loyihalashtirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi:

fanning mazmuni talabaning aktiv faoliyati natijasidagina o‘zlashtirilishi mumkin; ta‘lim mazmuni ta‘lim texnologiyasining muhim qismi bo‘lib, ko‘p jihatdan uning kechish jarayonlarini (metodlar, shakl va vositalar majmuini) belgilab beradi;

o‘rganilishi kerak bo‘lgan obyektning tuzilmasi va kasbiy faoliyatning tuzilmasi oliy kasbiy ta‘lim mazmuniga ta‘sir etuvchi asosiy omillar hisoblanadi;

o'quv fanining mazmuni shaxsning kasbiy jihatdan ahamiyatli hisoblanadigan sifatlarini e'tiborga olgan holda, oliy ma'lumotli mutaxassisning shaxsiy sifatlarini shakllantirishni ta'minlashi kerak;

ta'lim mazmunini loyihalashtirish tizimi kutiladigan natijalarni oldindan ko'ra bilishi zarur.

Ta'lim mazmuni pedagogik loyihalashtirish uchun mustaqil obyekt bo'lib, har qanday pedagogik tizimning muhim qismi hisoblanadi.

**Xulosa.** Bundan kelib chiqadiki, ta'lim jarayonini loyihalashtirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayon hisoblanadi. Ta'lim jarayonini loyihalashtirishning boshlang'ich bosqichi – ta'lim maqsadini belgilashdan iborat. Ta'lim maqsadi didaktikaning asosiy – “nima uchun o'qitish”ni aniqlovchi kategoriyasi bo'lib, yo'naltirish, boshqarish vazifalarini amalga oshiradi, pedagogik faoliyatning kutilajak natijasini belgilaydi.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Khodjamkulov, U., Botirova, S., Shofkorov, A., & Abdirimova, I. (2020). Bases of Organizing Cooperation between Educational Institutions through Clusters (on the Example of the Education System of Uzbekistan). *Journal of Critical Reviews*, 7(12), 166-169.

2. Khodjamkulov, U., Makhmudov, K., & Shofkorov, A. (2020). The Issue of Spiritual and Patriotic Education of Young Generation in the Scientific, Political and Literary Heritage of Central Asian Thinkers. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(05), 6694-6701.

3. Kholikova, N. (2020). Poetic Features of Uzbek Poetry of the National Awakening Period. *Theoretical & Applied Science*, (4), 615-623.

4. Makhmudov, K. (2020). Ways of Forming Intercultural Communication in Foreign Language Teaching. *Science and Education*, 1(4), 84-89.

5. Mukhamedov, G., Khodjamkulov, U., Shofkorov, A., & Makhmudov, K. (2020). Pedagogical Education Cluster: Content and Form. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 1(81), 250-257.

6. Rahmatilla, N. (2020). Abdulla Oripov dostonlarida milliy qadriyatlar talqini. *Til va adabiyot ta'limi*, (7), 60-61.

7. Sergeyeva, E. (2020). Artistic Identity of L. Solovyov's Novel "The Tale of Khodzha Nasreddin". *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(6).

8. Shaykhislamov, N. (2020). Main Directions and Interactive Methods of Student Speech Growth in Uzbek Language Classes. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(7), 115-120.

9. Shaykhislamov, N. (2020). Semantic and Linguocultural Features of English and Uzbek Proverbs with Concept of Friendship. *Студенческий вестник*, 28(126), 29-30.

10. Shayxislamov, N., & Makhmudov, Q. (2020). Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'rgatishda boshqa fanlar bilan bog'lab o'qitish (integratsiya)dan foydalanish.